

YAPON TILIDA HURMAT IFODALANISHI VA UNING O'RGANILISH TARIXI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11393080>

Saloxiddinova Aziza

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Yapon kafedrası o'qituvchisi

@mail: azizasnow21@gmail.com

Anotatsiya:

Mazkur maqolada, o'rta asr yapon tilida hurmat ifodalanishining tarixiy o'zgarishi jarayoni ko'rib chiqilib, o'rta asr hurmat ifodalanishi kalssifikatsiyalanishi turli olimlar ishi bilan solishtirilib, fikr mulohazalar bayon etildi.

Annotation:

In this paper, I considered the historical change of honorifics, according to the strategy of expressions. This article examines the process of historical change in the expression of respect for medieval Japanese language. Moreover, clarified the interpretation of medieval respect with the work of various scholars.

Kalit so'zlar

keigo, sonkeigo, kenjyugo, teineigo, teichyugo, bikago

Dunyo tilshunosligida hurmat tushunchasi bevosita inson omili bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabatlar, nutqiy faoliyat, muloqot vaziyati, milliy-madaniy qadriyatlarga uyg'un ravishda namoyon bo'ladi. Hurmatning til taraqqiyoti, kommunikativ munosabat bilan bog'liqligi, ifoda shakli va namoyon bo'lish xususiyatlariga ega ekanligi bu tushunchani kategoriya sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Hurmat kategoriyasi bir qator kategoriyalar (ko'plik, egalik kabi turlovchi, shaxs-son, zamon kabi tuslovchi kategoriyalar), leksik-semantik guruhlar bilan aloqadorlikda talqin etishni taqozo etadi. Hurmat shu munosabatni reallashtiradigan inson omili, ijtimoiy munosabatlar, shaxs psixikasi, qobiliyati, ichki dunyosi, imkoniyati, yashash darajasi, turmush tarzi, ijtimoiy mavqeiga bog'liqdir⁹⁸.

Muloqot xulqi muommosini milliy xarakter – millatning o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan o'rganib bo'lmaydi. Muloqot

⁹⁸ Imamova X. Turk tilida hurmat kategoriyasi. – Toshkent – 2016. – 7-bet

nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki muloqotga kirishayotgan shaxsning ruhiy holati, hissiyoti va istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining emotiv (emotsional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi⁹⁹. Muloqotga kirishishdan asosiy maqsad ikki inson o'rtasida fikr almashish bo'lsa-da, tilshunoslar bundan boshqa yana bir qator muloqot funksiyalarini mavjudligini ta'kidlaydilar. Muloqotning bunday muhim funksiyalaridan biri mulozamat (manzirat) ifodalash xususiyatidir. Muloqotning bu funksiyasi tilshunoslikda fatik muloqot termini ostida tadqiq qilinadi. Bu termin o'rnida ba'zan sotsiativ so'zi ham ishlatiladi¹⁰⁰.

Yapon tilida muloqot jarayonida yuz beradigan mulozamat ifodalash munosabati, asosan, *keigo* termini bilan ifodalanadi.

Keigo (yapon tilida hurmat) 敬語 (けいご) とは、主体 (書き手、話し手など) とその相手 (読み手、聞き手) やその話題中の人物との社会的関係 (親疎、権力の大小) と態度を表す言語表現である¹⁰¹ 'So'zlovchi(yozuvchi) bilan tinglovchi(o'quvchi) hamda mavzu qaratilgan inson orasidagi sotsial munosabat darajasini belgilovchi so'z'.

"Hurmat so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha tavsiflangan: [-man qilingan, muqaddas narsa; muqaddaslik, dahlsizlik; izzat, ehtirom; siylov] 1. Kimsa yoki narsaga bo'lgan qadrlash, ulug'lash tuyg'usi; shunday tuyg'uli munosabat. 2. Qozonilgan, orttirilgan hurmat; obro', e'tibor¹⁰².

Hurmatning til taraqqiyoti kommunikativ munosabat bilan bog'liqligi, ifoda shakli va namoyon bo'lish xususiyatlariga ega ekanligi bu tushunchani kategoriya sifatida o'rganishni taqozo etadi. Muloqot nutqi tarkibida hurmat mazmunini aks ettiruvchi leksik birliklar mavjud. O'zbek tilida hurmat, iltifot, mulozamat, qadr, ehtirom, e'zoz, ikrom, izzat¹⁰³; yapon tilida 敬語、敬語表現、配慮表現、待遇表現、尊敬、so'zlari faol qo'llanadi.

Hurmat kategoriyasining kelib chiqish tabiatini ko'rib chiqqan X.Grays, J.Goffmann, J.Lich, G.Lakoff, R.Kasper, R.Uats hurmatning nazariy jihatlarini bilan shug'ullanganlar¹⁰⁴. Hurmatning psixolingvistik aspektlarini P.Braun va

⁹⁹ Bushuy T., Safarov SH. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.T.: Fan, 2007. 21-b.

¹⁰⁰ Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari:Filol. fan. d-ri ... diss-yasi, - Toshkent, 2000. 58-b.

¹⁰¹ 国語大辞典 (1981) 小学館

¹⁰² O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik. 5-tom. -Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 563-b.

¹⁰³ Imamova X. Turk tilida hurmat kategoriyasi. - Toshkent - 2016. - 14-bet

¹⁰⁴ Xalmurzayeva N. Yapon ish diskursida hurmat kommunikativ kategoriyasi (pragmalingvistik aspekti) :Filol. fan. d-ri ... diss-yasi, aftoreferati.- Toshkent, 2018.

S.Levinsonning “yuzni saqlab qolish”¹⁰⁵, T.Larinaning “yaqinlashuv va masofa” nazariyasi¹⁰⁶, J.Aznabaevning “so‘zlovchi-adresat” oppozitsiyasidagi etik-lingvistik konsepsiyasi tashkil qiladi¹⁰⁷.

Yapon tili hurmat kategoriyasiga bag‘ishlangan keng qamrovli va to‘liq tadqiqot ishi V.M. Alpatov tomonidan amalga oshirilgan¹⁰⁸. Bundan tashqari N.Svinina¹⁰⁹, L.Xronopulo, X.Takamizava, M.Nagao kabi olimlar biznes muloqot va biznes tilini o‘rganganlar¹¹⁰.

Shu o‘rinda qadimgi va o‘rta asr hurmat ifodalanishi ham turli olimlar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan. Rus olimlaridan N.A.Siromyatnikov, V.M.Alpatov¹¹¹, shuningdek, yapon olimlaridan Tsuijimura Touseki¹¹², Nishida Naotoshi¹¹³, Asada Hideko¹¹⁴lar o‘rganganlar. Yapon olimlaridan Tsujimura Touseki qadimgi davr hurmat kategoriyalarini turli yo‘nalishlarda tadqiq qilgan bo‘lib, boshqa tadqiqotchilarning e‘tirofiga ham sazovordir.

Yapon tilida o‘rta asr hurmat kategoriyalari umuman hurmat shakllarini tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda hurmat shakllarini turlicha klassifikatsiya qilingan. Quyida misollar keltiriladi.

Watanabe [渡辺1974 pp.33-34] hurmat ifodalinishi borasidagi ishida qadimgi va zamonaviy hurmat shakllarini umumlashtirib, hurmat shakllarini quyidagi turlarga ajratgan: 1. Mavzu qaratilgan shaxsga tegishli hurmat; u o‘z navbatida yana 2ga bo‘lingan: 1) adresantga qaratilgan hurmat; 2) adresatga qaratilgan hurmat. 2. Tinglovchiga tegishli hurmat. 1) mavzu o‘ziga qaratilgan, adresatni ulug‘lamay, tinglovchiga hurmat ko‘rsatish; 2) mavzu mazmuniga tegishli bo‘lmay, tinglovchiga qaratilgan hurmat. 3. Adresatga qaratilgan hurmat. 1) hurmat tinglovchiga ko‘rsatilishi lozim tinglovchi bo‘lmasada, hurmat so‘zlarni tanlab, o‘z qadrini yo‘qotmaydigan hurmat ko‘rinishi.

Hurmat klassifikatsiyasi bo‘yicha [馬淵和夫著1966] da quyidagicha berilgan.

¹⁰⁵ Brown P., Levinson S.C.: Politeness: Some universals in language usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 345 p.

¹⁰⁶ Ларина Т.В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. - М.: РУДН, 2003. - 315 с.;

¹⁰⁷ Азнабаева Л.А. Этика речевого поведения. Коммуникация: этиколингвистический аспект. под ред. Л.А. Азнабаевой. — Уфа: РИЦБашГУ, 2011.-С. 10-59.

¹⁰⁸ Алпатов В.М.Категории вежливости в современном японском языке. М.: Наука, 1973. 107 с.

¹⁰⁹ Свинина Н. Деловой стиль японского языка в устной форме. Дисс. канд. филол. наук. – М., 2008. - 200 с.

¹¹⁰ Xalmurzayeva N. Yapon ish diskursida hurmat kommunikativ kategoriyasi (pragmalingvistik aspekti) :Filol. fan. d-ri ... diss-yasi, aftoreferati.- Toshkent, 2018.

¹¹¹ Н.А.Сыромятников «Классический японский язык», М., 1983; Н.А.Сыромятников «Древнеяпонский язык», М., 1985; В.М. Алпатов. Япония: язык и общество. М., Изд. «Муравей», 2003.

¹¹² 辻村 敏樹(1968年)『敬語の史的研究』東京堂出版

¹¹³ 西田直敏 (1998) 『日本人の敬語生活史』 翰林書房

¹¹⁴ 浅田 秀子 (2014) 『敬語の原理及び発展の研究』 東京堂出版

“Hurmat soʻzlovchi(yozuvchi) va tinglovchi(oʻquvchi), hamda, mavzu qaratilgan shaxs orasidagi, mansab darajasi past yoki yuqoriligi jihatdan odatdagidan farqli maxsus soʻzlardan foydalanib muloqotga kirishish demakdir. Qadimgi davr hurmati ham hozirgi zamon hurmat kategoriyasi kabi asosan 3 katta guruhga boʻlinadi:

1. 尊敬(sonkei)—Gap va dialogdagi qatnashuvchi egaga tegishli, yozuvchi va soʻzlovchini hurmatini ifodalash
2. 謙讓(kenjyo)—Gap va dialogdagi qatnashuvchi adresatni quyi olib, harakat obyektiga, yozuvchi va soʻzlovchini hurmatini ifodalash
3. 丁寧(teinei)—Tinglovchi(oʻquvchi)ga tegishli, soʻzlovchi (yozuvchi) ning hurmati. Bu shakl asosan dialog va xatlardagina ishlatiladi.

Kindaichining klassifikatsiyasiga asoslanib, Miyaji¹¹⁵ quyidagi jadvaldagi hurmat klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. U yuqoridagi 3 turdan tashqari yana Bikago va Techyougoni qoʻshib, hurmatni 5 guruhga boʻldi.

| Bik ago | Tei neigo | Teichy ougo | Kenj yogo | Sonkeig o | |
|---------|-----------|-------------|-----------|-----------|-------------------|
| × | × | × | ○ | ○ | Qadimgi davr |
| × | △ | ○ | ○ | ○ | Oʻrta asr |
| △ | ○ | ○ | ○ | ○ | Oʻrta asr 2-yarmi |
| ○ | ○ | ○ | ○ | ○ | Yangi davr |
| ○ | ○ | ○ | ○ | ○ | Zamonaviy davr |

Yapon tilida hurmat asosan feʼl soʻz turkumi bilan ifodalanadi. Yapon tilida feʼl – 動詞 *doushi* deb atalib, ieroglifda ifodalangan. Etimologiya jihatidan *doushi* kango¹¹⁶ soʻz boʻlib, ieroglif 2 qismdan tashkil topgan. Uning oʻqilishi “xiragana” yozuvida どうし deb beriladi. Ieroglif anglatadigan maʼnosiga eʼtibor bersak 1-qismi 動 *ugoku* yaʼni “harakatlanmoq” degan maʼnoni, 2-qismi 詞 *shi* “turkum” degan maʼnoni anglatadi. Yapon tili izohli lugʻatlarida *doushiga* quyidagicha taʼrif

¹¹⁵ 「敬語史論」『講座日本語学9 敬語史』明治書院 一九八一年

¹¹⁶ 漢語 *Kango* (xitoy tilidan oʻzlashgan ieroglif soʻzlar) 和語 *wago* (sof yapon tilidagi soʻzlar) 外来語 *gairaigo* (chet tilidan oʻzlashgan soʻzlar)

beriladi: “Predmetning harakati (動作 dousa) , jarayoni (作用 sayou) , holati (状態 jyoutai) va mavjudligi (存在 sonzai) kabi ma’nolarni bildiruvchi so’zlarga fe’l deyiladi¹¹⁷”.

Xulosa qilib aytganda, har bir tabiiy tilda bo’lganidek, yapon tilida ham hurmat ifodalovchi terminlar tarixiy, madaniy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Hurmat shakllarining ifoda shakllari, namoyon etish vositalari muayyan tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, o’rta asr yapon tilida hurmat ifodalanishida ham, hozirgidek 3 shakl: sonkei, kenjyo, teinei kuzatilgan. O’ziga xos jihati esa bu turdan tashqari bikago va teichyogo shakllari ham mavjud bo’lgan.

Keyingi ishlarimizda yuqoridagi hurmat klassifikatsiyalariga tayanib, fe’l so’z turkumi orqali ifodalanuvchi hurmat shakllarini ko’rib chiqish maqsad qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalmurzayeva N. Yapon ish diskursida hurmat kommunikativ kategoriyasi (pragmalingvistik aspekti) :Filol. fan. d-ri ... diss-yasi, aftoreferati.- Toshkent, 2018.
2. Imamova X. Turk tilida hurmat kategoriyasi. – Toshkent – 2016. – 14-bet
3. Chamberlain, B.H., A Handbook of Colloquial Japanese, 2nd edition, London, Trubner & Tokyo: Hakubunsha, 1889
4. 辻村敏樹 (1992) 『敬語論考』 明治書院
5. 菊池康人 (1996) 『敬語再入門』丸善ライブラリー
6. 林四郎・南不二勇 (編) (1973) 『現代の敬語』 (『敬語講座』第六卷) 明治書院
7. 宮地裕 (1981 [1992]) 敬語史論. 森岡健二・宮地裕・寺村秀夫・川端善明 (編) 「講座日本語学9 敬語史」 明治書院
8. 『現代国語辞典』、新潮社 昭和60, 61年

¹¹⁷ 『現代国語辞典』、新潮社 昭和60, 61年